



**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI TARIX FAKULTETI TARIX
O'QITISH METODIKASI TA'LIM
YO'NALISHI**

KURS ISHI

Mavzu: O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyatini demokratlashtirish.

Bajardi: 4-“A” guruh talabasi Abdunazarova N

Qabul qildi: Hayitov U.

Navoiy-2015.

O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyatini demokratlashtirish.

Reja.

Kirish .

1-BOB. “Ommaviy axborot vositalari huquqiy asoslarining yaratilishi” mazusini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari.

1.1. Mustaqil O'zbekistonda ommaviy axborot vositalariga bo'lgan e'tiborning yanada kuchayishi.

1.2. Konstitutsiyaviylik va qonuniylik – ommaviy axborot vositalarining bosh mezon.

2-BOB. Jamiyatni demokratlashtirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati mavzusini o‘qitishning uslubiy jihatlari.

2.1.“Ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyatini yuksaltirishdagi o'rni.” mavzusini o'quvchilar ongiga singdirish vositalari.

2.2. “Mustaqil O'zbekistonda Ommaviy axborot vositalarining qo'llab – quvvatlanishi.” mavzusini o'qitishning samarali usullari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kurs ishining tushuntiruvchi qismi.

O`zbekiston 1991 yilning 31 avgustida mustaqillikka erishgach, qisqa vaqtda – 1992 yil 8 dekabrda o`zining birinchi Konstitutsiyasini qabul qildi. Oradan o`n yildan ortiq vaqt o`tib, 2002 yil 27 yanvarda o`tkazilgan umumxalq refrendumi natijalariga ko`ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi O`zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo`shimchalar kiritildi.¹

Kurs ishiishida mustaqil O`zbekistonda istiqlol tufayli qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarda ommaviy axborot vositalariga bo`lgan munosabatni yoritishni maqsad qilib qo`ydik.

O`zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribalariga tayanib, xalqaro huquqning umum e`tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan hamda umumbashariy mezonlar bilan necha ming yillik milliy qadriyatlarimizni o`zaro uyg'unlashtirgan holda, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko`zlab qabul qilingan mazkur Asosiy Qonunda ifodalangan ommaviy axborot vositalari haqidagi qoidalar uning yana bir yangi jihatlaridandir.

Respublikamiz Konstitutsiyasida mustaqillik sharofati tufayli so`z, matbuot va fikr erkinligini ta`minlashga qaratilgan muhim qoidalar mustahkamlab qo`yildi. Ushbu konstituciaviy qoidalarni ikki guruhga bo`lib tasniflash mumkin.

Birinchi guruh – fikr yuritish va so`z erkinligini inson va fuqaroning daxlsiz hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo`yishga hech kim haqli bo`lmagan shaxsiy huquq va erkinliklari sifatida qaror toptiruvchi konstituciaviy qoidalar.

Konstitutsiyaning 29-moddasida qayd etilganidek, har kim fikrlash, so`z va e`tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o`zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstituciaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr

¹ O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O`zbekiston”, 2003. 2-6

yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli boʻlgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.¹

Konstitutsiyaning 2, 12,14, 15,16,17,18,19,20,22,23,24,25,26,27, 30 va 31-moddalari ham, garchi ularning matnida “soʻz erkinligi”, “matbuot erkinligi”, “fikr erkinligi” kabi tushunchalar ishlatilmagan boʻlsa-da, inson va fuqaroning ana shu huquq hamda erkinliklari taʼminlanishi va himoya etilishiga xizmat qiladi. Bu konstituciaviy moddalar keyinchalik qabul qilingan koʻplab qonunlar va kodekslarda yanada kengaytirildi va konkretlashtirilib borilmoqda.

Ikkinchi guruh – insonning fikrlash, soʻz va matbuot erkinligini toʻgʻridan-toʻgʻri taʼminlashga qaratilgan fuqarolik jamiyatini alohida instituti – ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi huquqiy maqomi belgilab qoʻyilgan konstituciaviy qoidalaridan iboratdir..

Konstitutsiyaning 67-moddasi bunga misol boʻla oladi. Unda qayd etilganidek: “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning toʻgʻriligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Cenzuraga yoʻl qoʻyilmaydi”. Bunday qoida ilgari Oʻzbekistonning birorta konstituciyasida, hattoki sobiq ittifoq konstituciyasida ham qayd etilmagan.²

Oʻzbekiston tarixida birinchi marta ommaviy axborot vositalarining erkinligi prinsipi konstituciyaviy qoida tariqasida Ushbu modda negizida mustahkamlab qoʻyildi. eng muhimi, cenzura bekor qilindi. Cenzuraning taqiqlanishi bilan ommaviy axborot vositalariga tazyiq oʻtkazilishining oldi olindi.

Ushbu konstituciyaviy qoida ommaviy axborot vositalari chinakam erkin faoliyat yuritishining huquqiy kafolati boʻlib, jamiyatning yangilanishi jarayonida mislsiz ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, mazkur konstituciyaviy qoida ommaviy axborot vositalari qonunchiligining asosi boʻlgan bir qancha qonunlar qabul qilinishida mustahkam poydevor vazifasini oʻtadi va oʻtamoqda.

¹ Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Konstituciyasi. – T.: “Oʻzbekiston”, 2003, 5-b.

² Oʻzbekiston Respublikasi Konstituciyasiga sharh. – T.: “Oʻzbekiston”, 1995, 175-betlar.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun andozalarni joriy etish bo'yicha aniq choralarni amalga oshirishdir.¹

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish, matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlash masalalari hayotimizni isloh qilish va yangilash borasida oldimizga qo'ygan besh ustuvor vazifa yo'nalishdan biri etib belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda ommaviy axborot vositalari erkinligi – konstituciyaaviy tamoyillardan biri sifatida tan olindi. Shunga amal qilingan holda ish olib borilmoqda.

O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari erkinlik berilishi va bu erkinlikning huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilishi mustaqillik bilan bevosita bog'liq jarayon bo'lib, eski tuzum-sovet hokimiyati davrida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inish mustahkam qaror topganligi tufayli hatto ochiq axborot ham maxfiylashtirilgan edi.

Respublikada hali mustaqillik e'lon qilinmay turib, 1991 yil 14 iyunda “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonun qabul qilindi¹. Unda belgilanishicha, “O'zbekiston SSRda barcha ommaviy axborot vositalari erkindir. Ushbu qonun O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi asosida har bir fuqaroning so'z erkinligiga, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga kafolat beradi. Ommaviy axborot vositalari axborotni izlash, tanlash, qabul qilish va ommalashtirishda qonunga muvofiq ish olib boradilar. Ommaviy axborot vositalarini cenzura qilishga yo'l qo'yilmaydi”, deb ta'kidlab qo'yildi. Bu istiqbolgacha bo'lgan jarayonda ko'rsatilgan katta jasorat edi.

¹ Karimov I., O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O'zbekiston”, 2005, 25-bet.

¹ O'zbekiston Sovet Socialistik respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 yil 30 avgust, №8, 180-moddasi, 56-bet. Mazkur qonunning 2-moddasi “So'z erkinligi va ommaviy axborot vositasi” deb nomlangan.

Shu yo'l bilan fuqarolarning o'z fikrlarini erkin tarzda matbuotda yozma yoki og'zaki chiqishlarda ifodalash huquqi, ya'ni so'z erkinligi ilk bor qonun asosida kafolatlandi.

1995 yil 6 mayda imzolangan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonunning VIII bo'limiga muvofiq ushbu qonunga muayyan o'zgartirishlar kiritildi.²

Bu qoidalar oddiy qonun darajasi bilan cheklanib qolmay, balki ommaviy axborot vositalarining muhim ahamiyatini e'tiborga olib, Asosiy Qonun – Konstitutsiya darajasiga ko'tarildi.

Oliy majlisning 1997 yil 26 dekabrda qaratilgan qaroriga muvofiq "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi yangi qonun amalga kiritilishi munosabati bilan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi 1991 yilgi qonun va unga 1995 yilda kiritilgan o'zgartishlar o'z kuchini yo'qotgan deb topildi.

1991 yilgi qonunning "So'z erkinligi va ommaviy axborot vositasi" deb nomlangan 2-moddasi qoidalari 1997 yilgi qonunda yanada mukammallashtirilgan va 3 ta alohida modda – "Ommaviy axborot vositalari erkinligi" (2-modda), "So'z erkinligi" (3-modda) va "Senzuraga yo'l qo'yilmasligi" (4-modda) shaklida berilgan.¹

Qonunda ommaviy axborot vositalari erkinligi tushunchasi bilan so'z erkinligi tushunchasining har biri alohida ta'riflangani muhim yangilikdir. Ya'ni, 2-moddada: "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadi", deb belgilangan bo'lsa, 3-moddada: "Har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir"² degan qoida bilan so'z erkinligiga ixcham, aniq va ravshan ta'rif berilgan.

Senzuraga yo'l qo'yilmasligiga taalluqli qoida 4-moddada quyidagicha rivojlantirilgan: "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini

² O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 yil iyun, №6, 118-modda, 80-bet.

¹ O'sha manba, 63-bet.

² O'sha manba, o'sha joyda.

cenzura qilishga yo`l qo`yilmaydi. e`lon qilinayotgan xabarlar yoki materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek ularning matni o`zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo`q”.³

Yurtboshimiz I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, biz mustabid tuzum merosi va aqidalaridan, uning mafkurasi, ma`muriy nazorati va cenzurasidan juda katta qiyinchiliklar bilan xalos bo`lyapmiz.⁴

Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida ushbu masalalarga alohida urg`u berilayotgani O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki davridanoq ommaviy axborot vositalarini tom ma`noda “to`rtinchi hokimiyat” darajasiga ko`tarish borasida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan uzviy islohotlarning mantiqiy davomidir.

Bu borada Prezidentimiz o`zining matbuot va OAV xodimlariga 2006 yil 27 iyunda yo`llagan tabrigida yana bir bor ko`rsatib o`tdi. “Ommaviy axborot vositalarimizning istiqloq yillarida bosib o`tgan rivojlanish yo`liga nazar tashlar ekanmiz, tabiiyki, jurnalistlarimizning bugungi saviyasi va darajasini bundan o`n-o`n besh yil avvalgi holat bilan mutlaqo solishtirib bo`lmaydi.

Keyingi paytda milliy matbuotimizning qiyofasini tubdan o`zgartirib yuborgan komp`yuter va axborot texnologiyalari, Internet tizimi bilan bir qatorda, eng avvalo, bu vositalarning barchasini jonlantiradigan, ularga mazmun beradigan, ta`sirchanligi va samarasini amalda namoyon qiladigan asosiy kuch-jurnalistlar va matbuot xodimlarimizning malakasi va dunyoqarashi, tafakkuri va mahorati boshqalardan kam bo`lmaydigan darajaga o`sib borayotganini e`tirof etish adolatdan bo`ladi.

Bugun biz yurtimizda huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurayotgan ekanmiz, bu masalaning eng muhim sharti bo`lmish inson qadri, inson huquq va erkinliklarini himoyalash, odamlarni dunyoda xolisona xabardor qilish, bu jarayonlarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish, bir so`z bilan aytganda, el-

³ O`sha manba, 63-64-betlar.

⁴ Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.// O`zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. –T.: “O`zbekiston”, 2005, 36-bet.

yurt dardi va intilishlari bilan yashash, barchamizdan, birinchi galda, ommaviy axborot vositalari vakillarridan bu talab va mezonlarni kundalik hayotimizda izchil joriy etishni taqozo etadi.

Matbuotimiz oldida turgan mana shunday dolzarb vazifalarni ado etishda bugun bu borada olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish, jumladan, ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni eng zamonaviy texnologiya va uskunalar bilan jihozlash, soha rivoji uchun zarur boʻlgan islohotlarni amalga oshirish, matbuot ahlining masʼuliyatli mehnatini qadrlash, moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish masalalari bundan buyon ham davlatimiz, hukumatimiz eʼtibor markazida boʻlishi tabiiy, albatta”.¹

Davlatning boshqaruvida “toʻrtinchi hokimiyat”ga juda katta masʼuliyat yuklandi, vazifalar belgilandi. Biz kurs ishiishimizda ana shu modammolar, ularning echimlari haqida soʻz yuritamiz.

¹ Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 14.T. T.: “Oʻzbekiston”, 2006, 268-270-betlar.

1.1 Mustaqil O'zbekistonda ommaviy axborot vositalariga bo'lgan e'tiborning yanada kuchayishi.

O'zbekiston Respublikasi kuchli demokratik, huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Fuqarolik jamiyati demokratik islohotlarning muhim tarkibiy qismidir.

Fuqarolik jamiyati institutini mustahkamlash va rivojlantirish, OAVlarni rivojlantirish bo'yicha bir talay ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda O'zbekistonda 5 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilot, 870 dan ortiq gazeta va jurnallar 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostantsiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Agar bundan 15 yil oldin Respublikamizda 475 ta OAVlar bo'lgan bo'lsa, 2009 yilga kelib, bu raqam 1110 tani tashkil etdi. Xususan, ularning 600 dan ziyodi viloyatlarda faoliyat ko'rsatmoqda.¹

Prezident Islom Karimov 2005 yilning 28 yanvarida «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» mavzuidagi ma'ruzasida endilikda oldimizda turgan bir qator ustuvor vazifalarni belgilab berar ekan, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda ommaviy axborot vositalar roliga alohida e'tibor berdi. O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir.

Bu borada asosiy vazifa mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lgan matbuot, televidenie, radio faoliyatini

¹ O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor vazifamizdir" nomli ma'ruzani o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanma. 45- bet.



yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat. Xalqimiz ommaviy axborot vositalarida mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealarning haqqoniy jarayonlarini ko'rish va eshitishni istaydi. Shu boisdan ham keyingi yillarda ommaviy axborot vositalarini yanada demokratlashtirish va liberallashtirish, olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarning ochiqqligi va oshkoraligini ta'minlashda ularning faolligini oshirish, media makonga ilg'or axborot – kommunikatsiya texnologiyalarni bevosita joriy etishga qaratilgan qariyb 10 ta qonun hujjati qabul qilindi.


Prezident ma'ruzasida keltirilganidek, 2008 yilning iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi har ikki palatasi kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarori qabul qilindi.¹

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, parlament tomonidan qabul qilingan bu hujjat nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolik jamiyati institutlarining mustaqil rivojlanishini bosqichma-bosqich ta'minlash, mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida ularning roli va ahamiyatini kuchaytirish yo'lida yana bir muhim qadam

bo'ldi. Ushbu qo'shma qarorga ko'ra nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini moliyalashtirishni shakllantirishning mustaqil, demokratik printsiplariga asoslangan tizimi yaratildi. Dunyo ommaviy axborot vositalari tipologiyasiga ko'ra, ularning 5 ta asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin

¹ O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyati barho etish ustivor vazifamizdir" nomli ma'ruzani o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanma. 46- bet.





Prezidentimiz Islom Karimovning 2009 yilda chop etilgan «Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish» risolasida ham bugungi kunda zamon o'zgarishlari bilan ma'naviy hayotimizda har tomonlama o'tkir va dolzarb ahamiyat kasb etayotgan ommaviy axborot vositalar orqali parlament tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning mohiyati, sabab va oqibatlarini anglab etish, ayni vaqtda bu borada mavjud tashqaridan kirib kelayotgan xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha davrning o'zi kun tartibiga keskin qilib qo'yayotgan yangi vazifalar haqida atroflicha tasavvurga ega bo'lishi mumkin.¹

Shu boisdan ham Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini, bugungi kunda davlat televideniesi negizida jamoatchilik televideniesi kanalini bosqichma-bosqich shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy siyosatni, yangilanish va o'zgarishlar jarayonini har tomonlama chuqur, ta'sirchan usullar orqali yoritib borishi zarur.

¹ O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi oiliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyati barho etish ustivor vazifamizdir" nomli ma'ruzani o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanma. 47- bet.

Dunyo ommaviy axborot vositalari rivoji haqida soʻz yuritganda, avvalo, ommaviy axborot vositasi deganda nima tushunilishini bilmoq kerak.

Ommaviy axborot vositasi – sodir boʻlayotgan voqea-hodisalar haqidagi barcha maʼlumotlarni toʻplab, qayta ishlovchi va ularni yangilik-axborot sifatida ommaga etkazib turuvchi muassasadir. Buni baʼzan ommaviy axborot kommunikatsiyalari ham deb ataydilar.

Taʼkidlash joizki, bugungi kunda oʻzida matbuot, radio va televidenie xususiyatlari hamda imkoniyatlarini mujassamlashtirgan, axborot etkazib berish darajasi boʻyicha tezkorlikda va koʻlamdorlikda mukammal boʻlgan Internet ayniqsa shiddat bilan hayotimizga kirib bormoqda.

Oxirgi maʼlumotlarga qaraganda Xitoyda Internetdan foydalanuvchilar soni 350 milliondan oshgan va ushbu mamlakat dunyoda ikkinchi oʻrinda bormoqda. Bu borada peshqadam – AQShda Internetdan foydalanuvchilar soni 235 million kishidir.

Keyingi ikki yilda har biriga minglab kompʻyuterlar ulangan Internet serverlari soni dunyo boʻyicha 300 mingga etdi. Oʻzbekiston Respublikasi hududidan roʻyxatga olingan saytlar esa 150 mingdan ortdi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston milliy qonunchiligida Internet ommaviy axborot vositasi turi sifatida alohida tilga olinmaganligini ham eslatish oʻrinlidir. “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, “Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televidenie (kabelli, efir-kabelli televidenie) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega boʻlgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir”.¹

Hozirgi yurtimizdagi ommaviy axborot vositalarini davlat va nodavlat, shuningdek mahalliy ommaviy axborot vositalari sifatida farqlash mumkin.

¹ Qarang: Toʻrtinchi hokimiyat: Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari toʻplami, - T.: “Mehnat”, 2003.

Davlat ommaviy axborot vositalari - davlat tomonidan ta'sis etilgan yoki muayyan davlat ulushi va davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalaridir.

Mahalliy ommaviy axborot vositalari-mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ta'sis etilgan yoki ularning ulushi bo'lgan va mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalari, demokdir.

Nodavlat ommaviy axborot vositalari sirasiga esa nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, xususiy shaxslar tomonidan ta'sis etilgan va ularning mablag'lari hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalari kiradi.

O'zbekistonda davlat tomonidan barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi kafolatlangan mavjud sharoitda ommaviy axborot vositalarini muassisga mansubligi, mulk shakli nuqtai nazaridan ham bir necha turga ajratsa bo'ladi:

1. Muassisi davlat tashkilot(lar)i bo'lgan ommaviy axborot vositalari -("Xalq so'zi", "Narodnoe slovo", "Pravda Vostoka" gazetalari va boshqalar);

2. Muassisi tijorat tashkilot(lar)i bo'lgan ommaviy axborot vositalari ("EKO" gazetasi va boshqalar);

3. Muassisi nodavlat notijorat tashkilot(lar) bo'lgan ommaviy axborot vositalari ("Mahalla", "Hurriyat" gazetalari, "Ijtimoiy fikr". "Inson huquqlari" jurnali va boshqalar);

4. Muassisi siyosiy partiyalar va harakatlar bo'lgan ommaviy axborot vositalari ("O'zbekiston ovozi", "Golos Uzbekistana", "Fidokor", "Adolat", "Milliy tiklanish", "XXI asr" gazetalari, "Muloqot" jurnali, "Birlik" gazetasi kabilar);

5. Muassisi ommaviy axborot vositalari bo'lgan ommaviy axborot vositalari ("Mohiyat", "Darakchi" gazetalari va boshqalar);

6. Muassisi jismoniy shaxs(lar) bo'lgan ommaviy axborot vositalari ("Novosti Uzbekistana" gazetasi);

7. Muassisi mintaqaviy va xalqaro nodavlat tashkilot(lar) bo'lgan ommaviy axborot vositalari ("Markaziy Osiyo madaniyati" gazetasi);

8. Muassisi turli – yuridik shaxs(lar) va jismoniy shaxs(lar)dan iborat bo'lgan ommaviy axborot vositalari ("Turkiston-press" nodavlat axborot agentligi-yopiq akciyadorlik jamiyati); kabilardir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda ommaviy axborot vositalari soni misli ko'rilmagan darajada oshdi. 1991 yilda O'zbekistonda 351 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ularning soni 823 tadan oshib ketdi. Jumladn, gazetalar 389 tadan 800 taga, jurnallar 60 tadan 185 taga etdi. 1991 yilda faqat bitta teleradiokompaniya tashkil etilgan bo'lsa, hozir mamlakatimizda 70 dan ziyod teleradio studiya faoliyat yuritmoqda. Ularning aksariyati nodavlat va xususiy, reklama yo'nalishida faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda O'zbekistonda bir qancha nashriyot va matbuot uylari ham tashkil etildi.

Ko'plab chet el teleradio kanallari ko'rsatuv va eshittirishlarini O'zbekiston miqyosida uzatmoqda. Qator axborot agentliklari, internet tarmoqlari faoliyati mamlakatimiz aholisi uchun axborot manbai sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston OAVning faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1991 yildan e'tiboran bu borada ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Avvalo, aksariyat nashrlarning o'zini o'zi moliyaviy jihatdan ta'minlashga o'tayotganini ta'kidlash lozim.

Hozirgi vaqtda respublikamizda 153 gazeta va jurnal bir necha tillarda nashr qilinadi; ular orasida ikki, uch va hatto to'rt tilda chop etilayotgan nashrlar ham bor.

2004 yil 1 iyungacha bo'lgan rasmiy ma'lumotga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan va qayta ro'yxatga olingan ommaviy axborot vositalari soni 964 tani tashkil etgan, ularning 612 tasi gazeta, 165 tasi jurnal va byulleten, yurtimizda 4 ta informacion agentlik, 70 ta teleradio studiya, 29 ta kabel televideniesi va 102 ta elektron informacion vosita faoliyat yuritmoqda. Shunday qilib, 386 ta gazeta, 104 ta jurnal – mahalliy hokimiyat organlari, vazirliklar, turli muassasalarga tegishli.

Shuningdek, 145 ta gazeta va 37 ta jurnal jamoat tashkilotlari, 17 ta tijorat nashri, 11 ta gazeta va 2 ta jurnal xususiy shaxslar ta'sis etgan nashrlar sifatida chop qilinmoqda. Bundan tashqari, 38 ta nashr reklama, 15 tasi adabiy-badiiy soha, 15 tasi sport sohasi faoliyat yuritmoqda.

Matbuotning yangi tipologiyasi shakllanishi asosan ikki omiga: o'quvchi-mushtariylar talab-ehtiyoji va ta'sischi-larning shart-sharoitlariga bog'liq.

O'zbekistonda matbuot organini ta'sis etuvchi muassasalarga Oliy Majlis (Parlament); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, qo'mitalar, hokimliklar, siyosiy partiya, xalq harakatlari, kasaba uyushmalari, ijodiy uyushmalar, ilmiy va o'quv muassasalari, tijorat tuzilmalari, turli jamg'armalar, reklama agentliklari, ijtimoiy, diniy, ekologik tashkilotlar kiradi.¹

Bunday keng qamrovlik va rang-baranglikning zamirida, albatta, ommaviy axborot vositalari demokratik davlatning zarur konstituciyaviy instituti ekani bilan bog'liq yaqqol haqiqat mujassamdir.

Istiqlolning ilk yillarida eskicha fikr yuritish ta'siri oqibatida ommaviy axborot vositalarini haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat"ga aylantirish jarayoni bir qadar murakkab kechgani sir emas. Keng ko'lamli o'zgarishlar, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini demokratlashtirish sur'atlari qarshisida ommaviy axborot vositalari ishi talabga javob bermayotgani va shu bois ular faoliyatini tubdan isloh qilish zarurligi borgan sari ayon bo'la boshladi.

Shunday sharoitda jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining rolini faollashtirish borasida Prezident I.A.Karimov tomonidan istiqbolli yo'nalish aniq va puxta ishlab chiqildi.¹ Mazkur dasturilamal yo'l-yo'riqlar ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning buguni va istiqbolini belgilab berdi.

Bugun yurtimizning yaqin o'tmishda tamomila yagona mafkura quroliga aylantirilgan, o'z milliy zaminidan uzilgan, birlamchi manbalardan xolis va tezkor axborot to'plab tarqatish imkoniyatlari butunlay cheklab qo'yilgan matbuot, radio va televidenie, boshqa axborot vositalarining jamiyat hayoti va faoliyatidagi,

¹ O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizaciya va isloh qilish yo'ladi. T.: "Akademiya", 2005, 240-242-betlar.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asi: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. – T.: "O'zbekiston", 1998, 153-155-betlar.

demokratik taraqqiyot yo`lidagi ahamiyatini jiddiy oshirishga xizmat qiladigan tadrijiy islohotlarni joriy etishga kirishilganligi yaqqol sezilmoqda.

Istiqlol, yillari mobaynida bu borada bir necha yo`nalishda chuqur o`zgarishlar amalga oshirilayotganini kuzatish mumkin.

**Birinchi yo`nalish** – ommaviy axborot vositalarining faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy negiz barpo etishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Mamlakat ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirishning huquqiy asoslari bo`lgan “Noshirlik faoliyati to`g`risida” (1996 yil, avgust), “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to`g`risida” (1996 yil, sentyabr`), “Ommaviy axborot vositalari to`g`risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to`g`risida”, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to`g`risida” (1997 yil, aprel`), “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to`g`risida” (2002 yil, dekabr`) kabi qonunlar qabul qilindi.

Ayni paytda bu huquqiy negiz yangi qonunlar va amaldagi qonunlarga kiritilgan qo`shimcha va o`zgartishlar hisobiga takomillashtirib borilmoqda.

Boshqa bir qator qonun hujjatlarida ham jurnalist faoliyati va mas`uliyatini huquqiy tartibga soluvchi qoidalarga keng o`rin berilmoqda. “Axborotlashtiish to`g`risida”, “Reklama to`g`risida”, “Arxivlar to`g`risida”, “Davlat sirlarini saqlash to`g`risida”, “Aloqa to`g`risida”, “Fuqarolarning murojaatlari to`g`risida”, “Telekommunikაციyalar to`g`risida”, “Faoliyatning ayrim turlarini licenziyalash to`g`risida”, “Iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida”, “Prokuratura to`g`risida”, “sudlar to`g`risida” kabi o`nlab qonunlar, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarori va boshqa normativ hujjatlar shular jumlasidandir.

**Ikkinchi yo`nalish** – keyingi yillarda ommaviy axborot vositalari a jurnalistlarning manfaatlarini himoya qilish va ularga har tomonlama ko`maklashishga qaratilgan turli tuzilmalar tashkil etilayotir. Ayniqsa O`zbekiston Milliy matbuot markazi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazining tuzilishi ommaviy axborot vositalari faoliyatining maqsad va vazifalari hamda ko`lamini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Junalistlar

ijodiy uyushmasining 2004 yil mart oyidagi konferenciyasida esa O`zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi ta`sis etildi.

**Uchinchi yo`nalish** – professional jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini tayyorlash jarayoni butunlay yangi bosqichga ko`tarildi. Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakul`tetini faoliyati hozirgi zamon talablari asosida qaytadan tashkil etildi. O`zbekiston Davlat jahon tillari universiteti qoshida xalqaro jurnalistika fakul`tetini ochildi. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 26 fevraldagi “Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to`g`risida”gi qaroriga<sup>1</sup> muvofiq jurnalistika fakul`tetlarini tegishli texnikaviy jihozlar, zarur uskunalar bilan ta`minlash uchun mablag`lar ajratildi.

Bundan tashqari, jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi jurnalistika kursi, Nukus Davlat universiteti filologiya fakul`tetining jurnalistika bo`limi, Mannon Uyg`ur nomidagi Toshkent Davlat san`at instituti “San`atshunoslik qo`ng`iroq teatri aktyorligi” fakul`tetining jurnalistika bo`limi hamda Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro markazi jurnalist kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgandir.¹

Yana bir yangi qadam – O`zbekiston Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi qaroriga muvofiq, yangi o`quv yilidan boshlab O`zbekiston Milliy universiteti huzurida ikki yillik maxsus Oliy jurnalistika kursini ochish to`g`risida qabul qilingan qaror bu borada muhim ahamiyat kasb etdi.

To`rtinchi yo`nalish – ommaviy axborot vositalari borgan sari rivojlanmoqda, saflari kengaymoqda va xilma-xil fikrlar minbariga aylanmoqda. eng muhimi, davlat tashkilotlari organlari hisoblangan nashrlarga nisbatan jamoat tashkilotlari nashrlari va xususiy ommaviy axborot vositalarining izchil ko`payish tendenciyasi yaqqol ko`zga tashlanayapti.

Nodavlat notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar nashrlari, tijorat, reklama va diniy nashrlar muntazam chiqib turibdi. Axborot agentliklari, mustaqil

¹ O`zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 26 fevraldagi “Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to`g`risida”gi qarori. // Demkoratlashtirish va inson huquqlari, 2000, №3-4.

¹ O`zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari. – T.: O`zbekiston Milliy matbuot markazi. 2003, 147-bet.

telestudiyalar va radiokanallar, shu jumladan, FM toʻlqinidagi radiolar miqdori ortayotir.

Beshinchi yoʻnalish – ommaviy axborot vositalari, jurnalist faoliyatini moddiy va maʼnaviy jihatdan ragʻbatlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Preziden I.A.Karimovning 1993yil 24 iyundagi Farmoniga muvofiq 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni etib belgilandi.² Mazkur sana va umumxalq bayramlari munosabati bilan har yili yurtimizning eng fidoyi jurnalistlari, sohaning faol vakillari davlatning yuksak unvon va mukofotlari bilan taqdirlanishi yaxshi anʼanaga aylangan.

“Yilning eng ilgʻor jurnalisti”, “Ofarin”, “Navroʻz – boqiy bayram”, “Atirgul”, “Yilning eng ilgʻor matbuot xizmati” kabi tanlov, koʻrik va mukofotlar ham samarali faoliyat koʻrsatayotgan ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarni ragʻbatlantirishga qaratilgandir. Turli tashkilot va muassasalar oʻz yoʻnalishidan kelib chiqqan holda jurnalistlar oʻrtasi tanlovlar oʻtkazishni yoʻlga qoʻymoqda.

Shu jihatdan Navoiy viloyatida nashr qilinayotgan “Doʻstlik bayrogʻi” gazetasining faoliyati ham tahsinga sazovordir.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini belgilash toʻgʻrisida. // Oʻzbekiston matbuoti. – 1995. №6.

1.2. Konstitutsiyaviylik va qonuniylik – ommaviy axborot vositalarining bosh mezon.

Respublika Konstitutsiyasining 19-moddasida fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklari daxlsizligi konstituciaviy asosda belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 20-moddasida: “Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart”, deyilgan.

Demak, erkinlikning ham chek-chegarasi bor va u ko'pchilik manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan muayyan cheklashlarsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Bu chegara – qonun, qonunga itoatkorlikdir.

“Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonunning 6-moddasi “Ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda suistemollarga yo'l qo'yilmasligi” deb nomlanadi. Ushbu moddaga asosan uch jihatdan suiiste'mollarga yo'l qo'yilmasligi belgilangan bo'lib, ularning hammasi konstituciaviy qoidalar talablariga asoslangan.

Birinchi jihat. Ommaviy axborot vositalaridan O'zbekiston Respublikasining mavjud konstituciaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish, urush va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan o'zga sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir qilish maqsadida foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.¹

Ikkinchi jihat. Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularning shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi.²

¹ To'rtinchi hokimiyat: O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami, - T.: “O'zbekiston”, 1998, 64-bet.

² To'rtinchi hokimiyat: O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami, - T.: “O'zbekiston”, 1998, 64-bet.

Bu qoida Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erkinligi, sha`ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi yozib qo`yilgan 13-modda, fuqarolar huquq va erkinliklarining daxlsizligi mustahkamlangan 18, 19 va 20-moddalar, shuningdek, har kimning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi kafolatlangan 25, 27 va 48-moddalarga asoslangan.

Uchinchi jihat. Prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsatisiz dastlabki tergov materiallarini e`lon qilish, muayyan ish bo`yicha sud qarori chiqmasdan turib yoki sudning hal qiluv qarori yoxud hukmi qonuniy kuchga kirmay turib, uning natijalarini taxmin qilish yoki sudga o`zgacha yo`l bilan ta`sir ko`rsatish, nomini ko`rsatmaslik sharti bilan ma`lumot bergan shaxsning nomini oshkor qilish (sud oshkor etishni talab qiladigan hollar bundan mustasno) taqiqlanadi.¹

Bu o`rinda Konstitutsiyaning prokuratura organlari o`z vakolatlarini mustaqil holda, faqat qonunga bo`ysunib amalga oshirishi mustahkamlangan 120-moddasiga hamda sud hokimiyati va sud`yalar mustaqilligi belgilangan 106 va 112-moddalar qoidalariga tayanilgan.

Ma`lumki, ommaviy axborot vositalari biron-bir ijtimoiy guruhning emas, balki barchaning irodasini bayon etishi, fikrlar xilma-xilligiga amal qilishi lozim. Ushbu ezgu maqsadni amalga oshirish uchun zarur eng muhim, ya`ni so`z erkinligi huquqi esa milliy qonunchilikda, avvalambor, Konstitutsiyamizda to`liq kafolatlangan. **Axborot olish va tarqatishning konstitutsiyaviy kafolatlari va erkinliklari.** So`z va matbuot erkinligini huquqiy himoya qilishga, axborot olish va tarqatishni kafolatlashga qaratilgan boshqa bir qonun hujjati – 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan - “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to`g`risida”gi qonun jurnalistning kasb faoliyati bilan bog`liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi, uning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, unga huquqiy va ijtimoiy kafolatlar beradi, jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilaydi.

¹ O`sha manba, 64-bet.

Qonunning 4-moddasida: “Jurnalistdan xabarlar va materiallarni oldindan kelishib olishini, shuningdek material yoxud xabarning matnini oʻzgartirishni yoxud ularni butunlaynashrdan olib qolishni (efirga berilmaslikni) talab qilishga hech kimning haqqi yoʻq” ekani qayd etilgan.¹

Jurnalist oʻziga qonun hujjatlari bilan berilgan boshqa huquqlardan ham foydalanadi.

2002 yil 3 avgustda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartishlar va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunning XI boʻlimiga muvofiq 1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi qonunga kiritilgan tegishli oʻzgartishlar shular jumlasidandir.

Bu oʻzgarishlar soʻz, matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligi, axborot olish va tarqatish kafolatining huquqiy jihatdan yanada mustahkamlanishi borasida jiddiy ahamiyatga ega ekani tufayli ularga atroflicha toʻxtalib oʻtamiz.

Prezident I.A.Karimov 2002 yil 29 avgustda Oliy Majlis toʻqqizinchi sessiyasidagi “Oʻzbekistonda demokratik oʻzgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlari” mavzuidagi maʼruzasida bu masalaga ham atroflica toʻxtaldi.

Prezident taʼkidlaganidek: “Hammamiz bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz lozim: matbuot erkinligining kafolati –axborot sohasida bozor munosabatlari va raqobatni rivojlantirish bilan chambarchas bogʻliq. Bugun ommaviy axborot vositalari oldida iqtisodiy sheriklar topish, iqtisodiy jihatdan oʻzini oʻzi taʼminlashga erishish borasida keng va real imkoniyatlar paydo boʻlmoqda, bu esa oʻz navbatida ularning erkin va mustaqil faoliyat koʻrsatishida asosiy omil boʻlib xizmat qiladi.

Barcha ommaviy axborot vositalariga mulk shakli, tiraji, qamravi hamda mavzu yoʻnalishidan qatʼi nazar, ularning mamlakatimiz axborot maydonida halol raqobat asosida faoliyat olib borishi uchun davlat zarur shart-sharoitlarni yaratib

¹ Oʻsha manba, 52-bet.

berishi lozim. Aytish mumkinki, bu – jamiyatni tom ma`noda demokratlashtirish garovidir”.¹

I.A.Karimov ushbu ma`ruzasida “Ommaviy axborot vositalari sohasida iqtisodiy munosabatlarning asoslari to`g`risida”gi qonunni qabul qilish masalasini ko`rib chiqish vaqti etganligini qayd etar ekan, “bu qonun, boshqa ko`pgina masalalarni echish bilan birga, mustaqil inashrlarni ayrim eskicha fikrlaydigan mansabdor va amaldorlar, tabiiy monopoliyalar, homiylar va reklama beruvchilar, matbuot tarqatuvchilar, noshirlar va boshqalarning ta`siridan samarali himoya qilgan bo`lur edi”, deb uqtirdi.²

1997 yilgi “Ommaviy axborot vositalari to`g`risida”gi qonunga kiritilgan tegishli o`zgartishlar talqinini davom ettiramiz. Qonunning “Ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda suiiste`mollarga yo`l qo`yilmasligi” nomli 6-moddasi ushbu modda talablarini buzganlikda aybdor shaxslar, shu jumladan muharrir (bosh muharrir), jurnalist, boshqa shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishini ko`zda tutuvchi to`rtinchi qism bilan to`ldirildi.³

Bugungi kunda mamlakat ommaviy axborot vositalari zamon talabi darajasiga va jahon andozalari doirasida erkin, mustaqil hamda demokratik asosda faoliyat yuritishi uchun amaldagi qonunlarning o`zi bilan kifoyalanish mumkin emas, albatta.

Prezident I.A.Karimov ushbu yo`nalishda muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalarga to`xtalib, alohida uqtirganidek, “avvalo, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta`minlash kerak”.<sup>1</sup> Zero, moliyaviy mustaqilliksiz matbuot mustaqil bo`lishi mumkin emas. Bu esa o`z galida, tegishli huquqiy negiz mavjud bo`lishini talab etadi.

Fikrimizcha, iqtisodiy nuqtai nazardan qaratilganda, mamlakat ommaviy axborot vositalari zamon talabi darajasida va jahon andozalari doirasida erkin, mustaqil hamda demokratik asosda faoliyat yuritish uchun, aytaylik, sohaning eg

¹ Xalq so`zi, 2002, 11 oktyabr`.

² O`sha manba.

³ Xalq so`zi, 2002 yil 11 oktyabr`.

¹ Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. // O`zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O`zbekiston”, 2005. 36-37-betlar.

muhim huquqiy hujjatlaridan biri – “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonunda ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy shakllantirilishi xususida aniq me'yorlar mavjud emas.

To'g'ri, qonunning 20-moddasida ommaviy axborot vositalarida homiylar ishtiroki bir qadar qonunlashtirilgan, ammo mazkur qoida samaraliroq ishlashi uchun yanada takomillashtirishga muhtojdek.

Shulardan kelib chiqib, “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonunda ommaviy axborot vositalarining moliyaviy mustaqilligi qay yo'sinda ta'minlanishi kerakligini aniq va mukammal aks ettiruvchi muayyan modda va qoidalar kiritilishi zarur, deb o'ylaymiz.

Davlatimiz rahbari ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqinzinchi sessiyasida islohotlarning navbatdagi bosqichida bu borada bir qator yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish taklifini o'rtaga tashladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, respublika Prezidenti I.Karimov mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotini barqarorlashtirishda ommaviy axborot vositalarining rolini yanada oshirishni talab qilmoqda. Prezident har bir nutq va ma'ruzalarida, albatta, matbuotning kundalik hayotimiz va islohotlar davridagi roli haqida, ularning keng imkoniyatlari to'g'risida to'xtalib o'tadi. Buning boisi shundaki, matbuot va umuman axborot vositalarining demokratik rivojlanishdagi ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Biroq, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda ularning roli unchalik ham sezilmayapti, o'zlarini «to'rtinchi hokimiyat» sifatidagi imkoniyatlarini to'la ko'rsata olmayaptilar. Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati ommaviy axborot vositalari faoliyatiga jiddiy baho bermoqda. «Ochig'ini aytganda bizning matbuotimiz, televideniye va radio hozircha zamonaviy ish usullari va shakllarini egallab olganicha yo'q, xalqaro mezonlarga muvofiq emas. Matbuot sahifalarida va televideniya da chuqur tahliliy materiallar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro sharhlar yo'q, bahs-munozara ko'rinmaydi. Ayrim ommaviy davlat nashrlarining aniq fuqarolik pozitsiyasi va qiyofasi ko'zga tashlanmaydi. Ular asosan rasmiy xabarlarni e'lon qilish bilan cheklanmoqda», — deb mamlakat rahbari katta e'tiroz bildirdi.

Shuning uchun ham 1997-yili Oliy Majlisning VI sessiyasida ommaviy axborot vositalari huquqiy asoslarini mustahkamlash masalasi o'rta qo'yildi. Oliy Majlis o'zining VII sessiyasida «Axborot olish kafolatlari va huquqlari», «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish» singari qonun loyihalari muhokama qilinib, birinchi o'qishda qabul qilindi. «Xalq so'zi» gazetasining 1997-yil 13 va 14-fevral sonlarida qonun loyihalari umumxalq muhokamasiga havola qilindi. U keng jamoatchilikning yangi taklif va mulohazalari bilan to'ldirilib, 1997-yil 25-aprelda Oliy Majlis VIII sessiyasida qabul qilindi.

Ushbu qonunlarning dunyoga kelishi va to'la quvvat bilan amal qilishi bevosita hozirgi o'zbek milliy davlatchiligi ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Bunday qonunlar yaratilishining, deputatlar va umumxalq muhokamasiga havola qilinishining o'zi O'zbekistonning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, inson huquqlari erkinligi, ozodligi, uning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish kabi xalqaro huquq normalariga izchil amal qilayotganligidan dalolat beradi. Mazkur Qonunlarning o'ziga xos jihatlari ham borki, bu bevosita turmush tarzimiz va aholi ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan hodisadir. Jumladan:

- Qonunda aholi hamda jamiyatning xolisona, haqqoniy va xilma-xil axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish kabi hayotiy talablar o'z aksini topgan.
- «Axborot olish erkinliklari va kafolatlari» Qonunning 2-moddasida har bir fuqaroga axborot olish kafolatlanishi va davlat tomonidan himoya qilinishining alohida ta'kidlanganligi ham muhim ahamiyatga ega.
- Bunday Qonunlar MDH davlatlarida hali qabul qilinmaganligi, boshqa mamlakatlarda, xususan, demokratiya nisbatan rivojlangan mamlakatlarda esa kamdan-kam uchraydigan hodisa ekanligi bilan ham diqqatga sazovor.

Bir soʻz bilan aytganda, Oʻzbekistonda ommaviy axborot vositalari erkinligining nafaqat huquqiy asoslarini mustahkamlash, balki, shu bilan birga ularning moliyaviy mustaqilligini taʼminlashga qaratilgan islohotlarga alohida ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas.

2-BOB. Jamiyatni demokratlashtirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati.

2.1. Ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyatini yuksaltirishdagi o`rni.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari”¹ degan shiorni kun tartibiga qo`ydi.

O`zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdek ezgu maqsadlarni ro`yyobga chiqarish yo`lida jamiyatimiz a`zolarini xolis, tezkor va haqqoniy axborot bilan ta`minlashda ommaviy axborot vositalarining o`rni va mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda.

“Ommaviy axborot vositalari to`g`risida”gi qonunning 11-moddasida qayd etilishicha: “O`zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari ommaviy axborot vositalarini ta`sis etish huquqiga egadirlar. Ommaviy axborot vositasi bir necha muassis tomonidan ham ta`sis etilishi mumkin”.<sup>2</sup> ayni paytda, mamlakatimizda yuzdan ziyod nodavlat ommaviy axborot vositasi faoliyat ko`rsatayotgani ham, ko`p jihatdan, ana shu imkoniyat samarasidir.

Istiqlol tufayli fuqarolarimizning dunyoqarashi, tafakkuri, huquqiy ongi va madaniyati tubdan o`zgardi. Ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshdi. Jamiyatda yuz berayotgan o`zgarishlarga befarqlik munosabatidan voz kechilmoqda, manfaatdorlik hissi qaror topmoqda. Demokratik ko`nikmalar fuqarolarimiz hayot tarziga tobora chuqur singib bormoqda.

Vatandoshlarimizning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi esa, o`z navbatida, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish, erkinlishtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish bilan chambarchas bog`liq.

¹ Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. // O`zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O`zbekiston”, 2005. 27-bet.

² To`rtinchi hokimiyat: O`zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to`plami, - T.: “Mehnat”, 1998, 65-bet.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlari sirasiga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mahalla, oila, shaxs kabi turli –tuman sub`ektlar kirishini nazarda tutgan holda, shuni ta`kidlash o`rinli, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo`nalishlaridan biri – jamoat birlashmalarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirishdir.

Konstitutsiyamizning 58-moddasida davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta`minlaydi. Ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi, deb belgilab qo`yilgan.

Hozirgi paytda mamlakatimizda 5 mingtadan ortiq nodavlat notijorat tashkilot faoliyat ko`rsatmoqda. Odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro`y berayotgan demokratik o`zgarishlarning ko`lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda bu tashkilotlarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir.¹

Milliy qonunchilikka muvofiq ushbu tashkilotlar o`z ommaviy axborot vositalarini ta`sis etish huquqiga ega. Nodavlat notijorat tashkilotlar muassis va hamuassis bo`lgan ommaviy axborot vositalarining soni ko`p bo`lgani bois, faqat xotin-qizlar nashrlarini misol sifatida sanash bilan kifoyalanamiz. “Sanam” tadbirkor ayollar jurnali, “Saodat”, “Mashhura”, “Saida” jurnallari, “Aral kiuzlari” nohukamt jurnali, “Gulchehralar”, “Oila va jamiyat” respublika gazetalari, viloyatlarda chop etiladigan “ayol olami”, “Oydin”, “Iqbol”, “Qizbibi”, “Ayol va jamiyat”, “Ayol va zamon”, “Xonadon”, “Nafosat” gazetalari shular jumlasidandir.²

Shuni ham aytish joizki, ayni paytda O`zbekiston Prezidentining 2004 yil 25 maydagi “O`zbekiston Xotin-qizlar” qo`mitasi faoliyatini qo`llab-quvvatlash borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi farmoni va ushbu Farmon ijrosi yo`lida Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan 2004 yil 29 iyundagi qaror doirasida mamlakatimizda ayollar hayotini yoritadigan matbuot nashrlari

¹ Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizaciya va isloh etishdir. // O`zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O`zbekiston”, 2005, 28-bet.

² O`zbekiston ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari. Ma`lumotnoma. – T.: 2000. 435-445-betlar.

faoliyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilayotir.

Fuqarolik jamiyatining yana bir instituti – siyosiy partiyalar bo'lib, ularga tegishli ommaviy nashrlar nafaqat partiyaviy mansubligi, balki soni, davriyligi, tiraji, tarqalish ko'lamlari turlicha ekani bilan ham ajralib turadi.

Tadbirkorlik va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining nashri – “XXI asr”, “Adolat” social demokratik partiyasi nashri – “Adolat” gazetasi. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi nashri – “Milliy tiklanish” gazetasi, “Fidokor” gazetasi esa Fidokorlar milliy demokratik partiyasining nashri hisoblanadi. Xalq demokratik partiyasi boshqa siyosiy partiyalarga nisbatan ko'proq nashrlarga ega. XDP Markaziy kengashi “O'zbekiston ovozi”, “Golos Uzbekistana” gazetalari va “Muloqot” jurnaliga muassisdur. Ushbu partiyaning joylarda ham bir qancha nashrlari chop etilmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining universal nashri sifatida “Mahalla” gazetasini tilga olish maqsadga muvofiqdir.

Fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan yana biri – ommaviy axborot vositalari bo'lib, keyingi yillarda nodavlat yo'nalishdagi ommaviy axborot vositalarining faollashgani ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanayapti.

2005 yilda respublikamizda faoliyat yuritayotgan 50 ta nodavlat teleradiostudiya rahbarlari tomonidan O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiasiyasi /O'zeOAVMA/ ta'sis etilgani bu jabhadagi sa'y-harakatlarni tamomila yangi bosqichga ko'tardi. O'zeOAVMA – nodavlat notijorat tashkilot bo'lib, bugungi kunda unga a'zo teleradiostudiyalar etmishdan ortiq kanal orqali o'z materiallarini efirga uzatmoqda. Tarkibida qariyb bir ming besh yuz nafar ijodiy va texnik xodim ishlab turgan O'zeOAVMA a'zolarining umumiy auditoriyasi yurtimiz aholisining qariyb 18 million nafarini tashkil etadi. Ular mamlakatimiz hududining 70 foizini qamrab olgan.

Shunday ekan, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiasiyasi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi kabi mustaqil, o'zini o'zi

boshqaruvchi, hukumatga qarashli bo'lmagan professional tuzilmalar paydo bo'layotganini aytish zarur.

Jurnalistlar ijodiy uyushmasining asosiy maqsadi, uning Nizomida qayd etilganidek: “jurnalistlarning jamiyatdagi tutgan o'rni va mavqeini ko'tarish, mulkchilik shaklidan qat'i nazar turli gazeta-jurnallar, tele va radikanallarda, nashriyotlar va axborot agentliklarida ishlayotgan, shuningdek erkin ijodkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ijodiy hamda mualliflik huquqlarini, sha'ni va qadr-qimmatini, davlat va jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining muassislari va noshirlari oldidagi huquq va manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashishdan iborat” (Nizomning II bob, 2.1-moddasi).¹

Endilikda kasbga doir ana shu nodavlat tashkilotlar o'z faoliyatini jadallashtirishi, o'zaro faoliyatini muvofiqlashtirishga intilishi va sohada o'zini o'zi boshqarish tizimini izchil yo'lga qo'yishi kerak bo'ladi.

Keyingi yillarda jurnalistlarning geografik joylashuv yoki ixtisoslashuv kabi asoslarga tayangan holda jamoatchilik asosidagi turli kasb tashkilotlari tuzish tajribasi ommalashganini ham kuzatish mumkin.

1999-2006 yillar oralig'ida “Ayol jurnalistlar klubi”, Xorijda tahsil olgan, malaka oshirib qaytgan o'zbek jurnalistlarining “33+” klubi, “Matbuot kotiblari klubi”, “Toshkent jurnalistlar klubi”, shuningdek vodiy jurnalistlarining “Hamkor”, Buxoro jurnalistlarining “Reportyor” klublari, Sport jurnalistlari klubi, ekolog jurnalistlar assosiasiyasi kabi tuzilmalar tashkil topdi.²

Ommaviy axborot vositalari ishini, jurnalistlar hayoti va faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim va mustaqillikni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatni demokratlashtirishda ommaviy axborot vositalari rolining ortib borishi. O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy hayotning boshqa sohalari qatori ommaviy axborot vositalariga ham yangicha munosabat vujudga keldi. Buning boisi shunda ediki, O'zbekistonda qurilayotgan o'ziga xos,

¹ Ushbu Nizom matni yuqorida zikr etilgan ta'sis konferenciyasida tasdiqlangan. Shuningdek, mazkur konferenciyada O'zbekiston Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy – siyosiy jamg'armasining ixtiyoriy ravishda uyushmaga kirish to'g'risidagi qarori ham inobatga olingan.

² O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari. – T.: O'zbekiston Milliy matbaoi markazi. 2003, 280-bet.

o'ziga mos yangi jamiyat ommaviy axborot vositalari oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda edi.

Bular yangi jamiyatning mohiyati, yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mazmuni haqida ommaga to'liqroq tushuncha berish, istiqboldek muqaddas ne'matning olamshumul ahamiyatini adolatli va demokratik jamiyat qurish hamda uning ravnaqi uchun kamarbasta bo'lish zarurligini har bir fuqaro ongiga yetkazishdan iborat edi. Yangilanayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy jarayonlarni hayotga tatbiq etishda faol ishtirok etishga da'vat qilish, ularni ommaviy safarbarlikka chorlash darkor edi.

Mustaqillikning milliy qadriyat sifatida e'zozlanishi, uni yangidan yangi mazmun bilan boyitish uchun keng jamoatchilik fikrini uyg'otish tub islohotlar samarasini oshirishning yetakchi omillaridan biridir.

Ma'lumki, matbuot hamma vaqt rivojlanishning har bir bosqichida o'zi yashab turgan jamiyatning manfaati uchun xizmat qilgan, uning maqsad va intilishlarini targ'ib qilgan, yoqlab chiqqan. Zotan, haqiqiy xalqchil matbuotning vazifasi ana shundan iborat bo'lmog'i kerak. Afsuski, sho'rolar tuzumi davrida matbuot yakka-yu yagona kommunistik mafkura g'oyalarini targ'ib qilgan, uning rahnamolari yo'1-yo'riqlari asosida ish tutgan, ular topshirig'ini bajargan¹.

Xalq og'zida matbuot deb atalgan ommaviy axborot vositalari amalda «barcha g'alabalarimizning ilhomchisi va tashkilotchisi», deb bong urilgan kommunistik partiyaning xizmatkoriga aylangan edi. U qizil imperiyaning suyangan tog'i, totalitar tuzum manfaatlarini himoya qiladigan G'oyaviy qurolga aylangan edi. Tabiiyki, bu holat omma bilan matbuot o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirgan edi.

Aslida matbuot omma fikrini o'zida ifoda etishi, shu asosda o'z sahifalarida xalq xohish-irodasini, umumxalq manfaatini va umumjamiyat istiqbolini ifodalashi lozim. Shundagina uning obro'-e'tibori oshib, jamiyat oldidagi, xalq oldidagi burchini xolisona ado etishi, erkin matbuotga aylanishi mumkin.

¹ O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari. – T.: O'zbekiston Milliy matbaoi markazi. 2003, 281-bet.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng aytish mumkinki, matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalarida o'ziga xoslik paydo bo'la boshladi. Endi gazetalar, jurnallar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda bevosita respublikaning Mustaqilligiga bag'ishlangan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-ma'rifiy ahamiyatga egabo'lgan mavzularga keng o'rin beriladigan bo'ldi.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, O'zbekiston ommaviy axborot vositalari endilikda xorijiy mamlakatlarda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi axborotlarni, yangiliklarni, o'sha mamlakatlar yoki yirik axborot agentliklaridan bevosita, to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Ayniqsa, 1996-yilning may oyidan boshlab respublikamizning jahondagi yirik kompyuter tizimi «Internet» bilan aloqa o'rnatib, undan eng muhim yangiliklarni qabul qilib olishning yo'lga qo'yilgani O'zbekiston axborot vositalari tarixida ulkan yangilik bo'ldi.

«Internet»ning bir necha yuz million abonenti bo'lib jahondagi eng yirik axborot markazlari unga a'zo bo'lishgan. U butun dunyo bo'yicha turli sohalardagi yangiliklarni qabul qilib oladi hamda ana shu yangiliklarni o'z abonentlariga tez va aniq yetkazib beradi.

O'z navbatida respublikamiz haqidagi muhim yangilik va axborotlar ham mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy axborot agentliklari vakillari va muxbirlari tomonidan o'sha mamlakatlar axborot vositalari uchun bevosita yetkazib berilmoqda. Axborot almashinuvi, dunyo voqealaridan xabardorlik, yoki aksincha, dunyo sahnasiga chiqish, o'zini namoyon qilish imkoniyati tug'ildi.

Mustaqillik tufayli gazeta sahifalari, radioeshittirishlari va teleko'rsatuvlarda mamlakatning qadimiy tarixi, o'tmishi, madaniyati, sho'rolar tuzumi davrida taqiqlab qo'yilgan milliy qahramonlarimiz haqida, o'zbek xalqining o'ziga xos urf-odatlar, aqidalari to'g'risida qiziqarli maqolalarga keng o'rin berildi. Ana shuning o'zi endi mamlakatimizda hurriyat, hurfiylik, milliy manfaatlar va milliy ravnaqqa yo'l ochilganidan dalolat beradi.

Shuningdek, matbuotda islom madaniyati, nazariyasi, tarixi va qonuniyatlarini targ'ib qilishga keng yo'l berildi. Buyuk mutasawuf allomalar

Hakim at-Termiziy, Imom Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoni, Abu Mansur Moturudiy, Marg'iloniy hamda boshqa qator tarixiy shaxslar, ulug' donishmandlar, xususan Sohibqiron Amir Temur haqida keng miqyosli maqolalarning berib borilishi jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

Islom dinining boy ma'naviy imkoniyatlaridan foydalanishga imkon yaratildi. Axloqiy barkamollik va ruhiy tozalik uchun zarur omil sifatida uning taraqqiy etishiga, kundalik turmush tarzimizga kirib borishiga keng yo'l berildi. Bularning hammasi O'zbekiston matbuotining oldingi «qizil yalovbardorlik» illatlaridan qutulib, sog'lomlashib, xalqchil va oshkora tus ola boshlaganidan dalolat beradi. Buni ommaviy axborot vositalarining demokratlashish sari qadam tashlayotganining yorqin dalili, deyish mumkin.

Umuman olganda, istiqlol erkin fikrlashga, har kimning o'z fikrini oshkora bayon qilishga, hurriyatga keng eshik ochdi. Hurfikrlilikni barqaror etishning yangidan yangi imkoniyatlarini yaratdi. Jumladan, vaqtli matbuot turlari va sonlari ko'paydi. Demokratik erkinlik sharoitida bir necha mustaqil siyosiy harakatlar, jamoat birlashmalarining nashrlari tashkil qilindi. Xususan, O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasining «O'zbekiston ovozi» — «Golost Uzbekistana», «Vatan taraqqiyoti» partiyasining «Vatan», «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining «Adolat», «Milliy tiklanish» partiyasining «Milliy tiklanish», Fidokorlar milliy-demokratik partiyasining «Fidokor» gazetasi, «Xalq birligi» harakatining «Birlik» gazetalari nashr qilina boshlandi. Qator vazirliklar, davlat qo'mitalari, uyushma va konsernlar o'z sohalariga doir nashrlar tashkil etishdi. Bunday gazeta va jurnallarning chiqishi ma'lum tarmoq muammolarini, o'ziga xos murakkabliklarni o'z vaqtida o'rganishga yordam beradi.

Mustaqil nashrlar o'z muassislari g'oyalari va dasturlari yo'nalishlari doirasida mustaqil ish olib boradilar. Islohotlar va yangilanishlarga o'z munosabatlari, muammolarga yondashish usullari bor. Biroq, yagona maqsad — istiqlol taqdiri, mamlakat va xalq istiqboli ularni birlashtirib turadi.

Prezident I.A.Karimov ommaviy axborot vositalarining rolini alohida ta'kidlab, - «Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishi lozim. Ular haqli ravishda hokimiyatning to'rtinchi tarmog'i bo'lishi darkor. Ommaviy axborot vositalari hayotimizga kun sayin chuqurroq kirib borayotganini hozir hech kim inkor etolmaydi. Bu jarayonni tabiiy hoi, deb qabul qilmoqdamiz. Bugungi kunda nashrlar soni ko'payibgina qolmasdan — hozir 490 ta gazeta va 138 ta jurnal ro'yxatga olingan — jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishida ularning ahamiyati va tutgan o'rni ham ortib bormoqda» - degan edi (7-j., 390—391-betlar). Bulardan tashqari, hozir respublikamizda bir qancha telestudiya, viloyat, shahar va tumanlarda radio studiyalar va 4 ta axborot agentligi faoliyat ko'rsatmoqda.¹

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar ommaviy axborot vositalari zimmasiga butunlay yangi vazifalarni qo'ya boshladi. Matbuotning aholida yangicha ong va tafakkurni shakllantirishda ta'sirchan qurol bo'lishini, kishilarning fikr va xohish-irodasining erkin, xolis ifodachisi, aytish mumkinki, inson manfaatlarining izchil va faol himoyachisi bo'lishini hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Aslida ham shunday bo'lmog'i kerak. Har qanday matbuot organi eng avvalo, xalq manfaati va mamlakat istiqbolini ko'zlashi lozim. Ana shunda u milliy qadriyatga aylanadi. Keng jamoatchilik tan oladi. Aks holda u umummanfaat mulkiga emas, bir hovuch uyushgan xudbin shaxslarning beqadr mulkiga aylanadi, xolos.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, demokratik jarayonlar ancha chuqurlashgan, demokratik matbuotga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda so'z va fikr erkinligi asta-sekin o'z oqimi bilan kirib kelgan. Jamiyatni tubdan isloh qilish, asrlar mobaynida shakllanib qolgan tushunchalarni sindirish, hurfiylikni turmush tarziga aylantirish maqsadida ana shunday qonunlarning qabul qilinishi O'zbekiston uchun katta siyosiy, madaniy, qolaversa, huquqiy voqelikdir. Ayni

¹ To'rtinchi hokimiyat: O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami, - T.: "Mehnat", 1998, 65-bet.

paytda u matbuot jahon andozalariga moslashtirish, fuqarolarni erkin fikrlashga o'rgatish va shu asosda jamiyatni sog'lom fikrlar asosida butunlay qaytadan qurish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatadi.

Qolaversa, xuddi ana shunday qonunlarga Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida ham ehtiyoj katta. Biroq, ularning ayrimlari boshboshdoqlikka aylanib ketgan, jilovsiz va yuzaki demokratiya ishqibozlari bo'lsa, ayrimlari hali o'zlarini yig'ib olib, xotirjam fikrlash imkoniyatiga ega emaslar. Boshqacha qilib aytganda hali bungacha yetib kelganlari yo'q.

Ma'naviyatga e'tibor, so'z va fikr erkinligiga ma'naviy mezon sifatida yondashish, hurfikrlilikka yuksak axloq, komillik va ma'rifatlilik ko'zgusi sifatida qarash uchun eng avvalo jamiyatda barqarorlik mavjud bo'lishi kerak. Fuqarolarning maqsad va intilishlari yagona yo'lga safarbar etilishi, ular o'z ertasini va olis istiqbolini aniq ko'ra bilishi, uni boshqarayotgan hukumatga qat'iy ishona olishi darkor. Bunday vaziyat esa, aytish mumkinki, sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan barcha Mustaqil mamlakatlar orasida faqat O'zbekistonda mavjud.

Bunday Qonunlarning qabul qilinishi konkret sharoitdan, mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimi natijasida kelib chiqqan hodisa bo'lib, O'zbekistonda turli fikrlar va qarashlar rivojlanishining o'zbekona «modeli» shakllanayotganining belgisi, demokratik qadriyatlarning O'zbekiston uchun xos bo'lgan ko'rinishlarning yuzaga kelishidir.

1996-yil 2-avgustda Oliy Majlis «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida», «Noshirlik faoliyati to'g'risida» qonunlar qabul qildi. Bular mamlakatimizda ixtirochilik va badiiy ijod mualliflari huquqini himoya qilishga, noshirchilik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demokratiyaning, konstitutsiyaviy taraqqiyotni ta'minlashning, inson huquqlari va erkinliklari, qadr-qimmatini himoya qilishning g'oyat muhim masalasi sifatida televideniye va radioeshittirish tizimini milliy g'oyalar asosida qayta shakllantirish, uning respublikada iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarning amalga oshirishdagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida 1996-yil 7-mayda «O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish

chora-tadbirlari to'g'risida» Farmon qabul qilindi. Unda O'zbekiston Davlat televideniye va radioeshittirish Qo'mitasi O'zteleradiokompaniyaga aylantirildi. Uning vazifasi qilib quyidagilar belgilandi:

Birinchidan, axborotlarning mafkuradan mutlaqo xoli bo'lishini nazarda tutgan holda aholi hamda jamiyatning xolisona, haqqoniy va xilma-xil axborotlariga ehtiyojini o'rganish va qoniqtirish;

Ikkinchidan, mamlakat aholisini, shuningdek, chet el jamoatchiligini O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar to'g'risida keng xabardor qilish va hokazolar.

O'zbekiston Respublikasida 2008-yil holatiga 967 ta ommaviy axborot vositasi: ulardan 681 ta gazeta, 189 ta jurnal, 4 axborot agentligi, 51 ta telestudiya, 14 ta radiostudiya bundan tashqari 49 ta kabel televideniyesi, 464 ta elektron axborot vositasi yoki Internet faoliyati ko'rsatib turibdiki, bu mamlakatimizda OAVlarni faoliyat yuritishi uchun, fuqarolarning axborot olish, axborot uzatish, so'z va e'tiqod erkinligini amalga oshirishlari uchun yaratilganligidan dalolat beradi.

Prezident I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvardagi qo'shma sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti bo'lgan ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andoza-larni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor berdi. «Bu boradagi asosiy vazifa — mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lmish matbuot, televideniye, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini ta'minlashdan iborat», deb alohida uqtirdi.¹

Mazkur ma'ruzada belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan Prezident I.A.Karimov 2005-yil 10-martdagi «Jamiyatni demokratlashtirish va

¹ Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 14.T. T.: "O'zbekiston", 2006, 268-270-betlar.

yangilash, mamlakatni islohot etish va modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida» qaror qabul qildi. Qaror bilan «Ommaviy axborot vositalari faoliyatini demokratlashtirish sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish Konsepsiyasi» tasdiqlandi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak bu — sohaga oid qonunchiligimiz bazasini xalqaro demokratik andozalar asosida qayta ko'rib chiqish va mustahkamlash vazifasi belgilangan muhim Konsepsiyadir.

Shu bilan birga bir qator yangi me'yoriy hujjatlar ham qabul qilindi. Jumladan:

— OAV vakillarini vakillik va ijro organlarida doimiy akkreditatsiyadan o'tkazish vositasida jurnalistlarning davlat idoralarining faoliyatidan xabardor bo'lib turish, vaqtida kerakli axborotlar olish hamda ularni tezkorlik bilan jamoatchilikka yetkazish imkonini beradi;

XULOSA

Jamiyatni demokratlashtirish va xalqimizning siyosiy faollagini oshirishda fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashda matbuotning o'rnini kattadir.

Istiqlol yillarida OAV faoliyatini yanada liberallashtirish, ularga iqtisodiy erkinliklarni ta'minlab borish, OAV moddiy texnika bazasini yangilash hamda mustahkamlash, nodavlat elektron va bosma nashrlarni rivojlantirish, zamonaviy raqamli va komp'yuter axborot texnologiyalarni joriy etish, jurnalistlar mehnatini rag'batlantirish, jurnalist kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning kasb mahoratini oshirish yuzasidan ezgu ishlar amalga oshirilmoqda.

Jo'shqin o'zgarishlar kechayotgan hozirgi pallada xolisona so'z aytish nihoyatda muhimdir. Bu esa jurnalistlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashi barobarida atroflicha voqealarga yangicha tafakkur, teran nigoh bilan qarashni taqozo etadi.

O'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar, qilingan xayrli amallar tarix sahifalarda muhrlanib qoldi, qator yangilanishlar amalga oshirildi. Bunga avvalambor Prezidentimizning Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida tilga olingan OAVni rivojlantirish uchun demokratik andozalarni jalb etish bo'yicha vazifalar asos qilib olindi. Bu boradagi asosiy vazifa-mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lgan matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat.

Shu ulug'vor vazifalarni amalga oshirish avvalo, qonun ijodkorligi bilan OAVlarning, huquqiy asoslarini yaratish bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning ustivor yo'nalishlari, maqsadli vazifalarga hisobga olingan holda, qonunchilik faoliyati dasturiga OAVga oid 15 dan ortiq qonun loyihalarni kiritdi. Bunga "Davlat hokimiyati organlari faoliyatini OAVda yoritish tartibi to'g'risida"gi, "Ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi iqtisodiy

munosabatlarning asoslari to'g'risida"gi , "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, qonunlarni misol keltirish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari erkinlashtirish va rivojlantirish yo'lida amalga oshirilgan xayrli ishlar jumlasiga O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamiyat fondining tashkil etilganligini ham misol keltirish mumkin. OAV o'rtasida radio va televideniening alohida o'rni va nufuzli o'rni bor. Bu sohani rivojlantirish jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Milliy teleradiokampaniyasida ham katta islohotlar o'tkazib mustaqil teleradiokanallar tashkil etildi.

O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushma mamlakatimiz ijtimoi- ma'naviy hayotida faol qatnashishmoqda. Matbuot va ommaviy axborot vositalari o'rtasida turli ijodiy tanlovlar o'tkazib kelmoqda.

Dunyoning barcha mamlakatlarida ommaviy axborot vositalari jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida etakchi o'rin tutadi. Gazeta va jurnallar, televidenie va radio har bir davlatda omma bilan hokimiyat o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi.

Istiqloldan so'ng mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligi, OAV sohasidagi bazasi shakllandi. Jurnalistlarimizning erkin faoliyati uchun zarur kafolat barpo etish. Jurnalist kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida qator tegishli qonunlar va qarorlar qabul qilindi.

OAVlarning jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo yosh avlod ongiga singdirishdagi o'rni beqiyos. Ular jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, millatni modernizatsiya va isloh etish jarayonlarni, bu boradagi muammolarni jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir.

Bugungi kunda mamlakatimizda jami 970 ta ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatmoqda. Davriy nashrlar soni 887 ta, gazetalar 680 ta, jurnallar 194 ta, axborotnoma va byulletenlar 13 ta)ga etdi.

Istiqlool yillarida ozod diyorimizda hayotimizning boshqa jabhalari qatori ommaviy axborot vositalari tizimini rivojlantirish sohasida har har tomonlama va chuqur hayotbaxsh islohotlar amalga oshirilyapti.

Biz oldimizga qo`ygan – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizaciya va isloh etishda ko`zda tutuvchi bosh maqsadimizning ustuvor yo`nalishlaridan biri aynan ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish masalasi ekani bejiz emas.

Bu boradagi asosiy vazifa – ommaviy axborot vositalari faoliyatida demokratik andozalarni joriy etish bo`yicha aniq hamda izchil choralarni amalga oshirish, matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning tom ma`nodagi mustaqilligi va erkinligini ta`minlashdan iboratdir.

Bundan ko`zlangan maqsad va ommaviy axborot vositalari fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ro`yobga chiqarishda eng ta`sirchan omil bo`lishidir, desak har tomonlama to`g`ri bo`ladi. Bu, avvalo, har bir fuqaroning o`z fikrini erkin ifoda qilish, axborot olish, davlat va jamiyat qurilishining o`ta muhim masalalarini muhokama etishda faol qatnashish huquqini ta`minlash demakdir.

Ommaviy axborot vositalariga doir barcha yangilanishlar, birinchi navbatda, mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatiga dadil kirib borayotgan mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini “to`rtinchi hokimiyat” darajasiga ko`tarishga qaratilgan.

Ayniqsa, yangi tuzilayotgan – ommaviy axborot vositalarini qo`llab-quvvatlash bo`yicha mustaqil jamoatchilik fondi, avvalambor, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta`minlash, sohada bozor munosabatlarini, axborot maydonida sog`lom raqobat tamoyillarini rivojlantirishga ko`maklashishi shubhasiz.

Bunday yangishlanishlar noshirlik va matbaachilikni yanada yuqori talablar darajasiga ko`tarishi, axborot xizmatlarining zamonaviy bozorini shakllantirish, jurnalistlar, barcha ijodkorlar faoliyatiga yangicha ravnaq bag`ishlashiga ishonchimiz komil.

Ammo, shu bilan birga, butun jurnalistlarimizda zamonaviy mezonlarga xos tezkorlik, tajriba va shijoatning etishmayotgani, hokimiyat faoliyatiga tanqidiy ko`z bilan qarashga haligacha o`rganmaganimiz, eskicha ko`nikmalardan to`la xalos bo`la olmayotganimiz – milliy matbuotimizni yuksak talablar darajasiga ko`tarishga xalal berayotgan asosiy muammolar ekani ham haqiqat.

Bugun o`zbek matbuoti zimmasiga, avvalo, mustaqil mamlakatimiz va inson manfaatlarining himoyachisi bo`lish, davlat va jamiyat o`rtasida xolis vositachi sifatida faoliyat yuritishdek sharaflari va mas`uliyatli vazifa yuklanganligini zinhori unutmasligimiz kerak.

Muxtasar aytganda, ertangi kunimiz taqdiri hal bo`layotgan bugungi davr loqaydlik va beparvolikdan butunlay xalos bo`lib, jasorat va shijoatni qalbga jo etib, shu Vatan, shu el uchun yonib-kuyib yashashni. Fidoyilik bilan ishlashni har birimizdan har doimgidan ham qat`iyyoq talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O`zbekiston”, 2003.
2. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizaciya va isloh etishdir.// O`zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O`zbekiston”, 2005, 36-bet.
3. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. – T.: “O`zbekiston”, 1998, 153-155-betlar.
4. Karimov I. A. O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi. // - T.: “O`zbekiston”, 2005, 88-bet.
5. Karimov I. A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. – T.: “O`zbekiston”, 2005, 7-bet.
6. Karimov I. A. “O`zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari”. T., «O`zbekiston», 1995.
7. Karimov I. A. “Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari.” T., «O`zbekiston», 1996.
8. Karimov I. A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz». T., «O`zbekiston», 2000.
9. Karimov I. A. «Jaloliddin Manguberdi — ozodlik, mardlik va qudrat timsoli». «Xalq so`zi», 1999 yil, 6 noyabr.
10. Karimov I. A. “Shahidlar xotirasi — mangu barhayot.” «Xalq so`zi», 2000 yil, 13 may.
11. Karimov I. A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqsa». T., «O`zbekiston», 1999.
12. Karimov I. A. «Vatan ozodligi — oliy saodat». T, «O`zbekiston», 1999.
13. Karimov I. A.«Hushyorlikka da`vat». T., «O`zbekiston», 1999.
14. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O`zbekiston Respublirasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo`lib o`tgan qo`shma majlisidagi “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va fuqarolik

jamiyati barho etish ustivor vazifamizdir” nomli ma’ruzani o’rganish bo’yicha uslubiy qo’llanma.

15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Axborotnomasi, №3(9) 2004, 10-bet.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari qunini belgilash to’g’risida. // O‘zbekiston matbuoti. – 1995. №6.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 26 fevraldagi “Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori.// Demokratlashtirish va inson huquqlari, 2000, №3-4.
18. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida”gi qonun. // Xalq so’zi, 2003, 7 fevral.
19. G‘ulom Mirzo, Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. –T.: TDYuI, 2004, 45-bet.
20. “Ommaviy axborot vositalari to’g’risida”gi qonun, 26-modda.//To’rtinchi hokimiyat: O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to’plami, - T.: “Mehnat”, 2003, 17-bet.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi “Inson huquqlari bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to’g’risida”gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, - T.: “Adolat”, 2000. 97-bet.
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining nashri. Xabarnoma, 8-son (23), 1996.
23. O‘zbekistonning yangi tarixi, “Mustaqil O‘zbekiston tarixi” Toshkent, G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 3-kitob.